

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA TURIZM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ETNOGRAFIK TURIZMNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

Kunnazarova Orazxan Murat-qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22804316>

Qabul qilindi: 8-sentabr 2026-yil • Ma’qullandi: 15-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 16-sentabr 2026-yil

Annotatsiya.

Mazkur maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasida turizm samaradorligini oshirishda etnografik turizmning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlaridan foydalanish istiqbollari tadqiq etilgan. Tadqiqotda hududning moddiy va nomoddiy etnografik resurslaridan samarali foydalanish, ularni zamonaviy turistik mahsulotga aylantirish hamda mahalliy aholining turizm jarayonidagi ishtirokini kengaytirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Qoraqalpog‘istonda etnografik turizmni rivojlantirishga to’squinlik qilayotgan infratuzilmaviy, marketing, kadrlar, tashkiliy-huquqiy, moliyaviy va mavsumiy muammolar tahlil qilingan. Shuningdek, xalqaro tajribadagi “Heritage Interpretation” va “Community-Based Tourism” modellaridan hudud sharoitida foydalanish imkoniyatlari asoslangan. Tadqiqot natijasida etnografik turizmni davlat, mahalliy jamoalar, tadbirkorlik subyektlari va turoperatorlar hamkorligi asosida rivojlantirish, etnografik resurslarni inventarizatsiya qilish, turistik mahsulotlarni diversifikatsiya qilish, raqamli marketingni kuchaytirish, homestay va etno-qishloq loyihalarini kengaytirish hamda mahalliy aholining bandligi va daromadlarini oshirishga qaratilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar taklif etilgan. Shuningdek, 2030-yilgacha turistik oqim va etnografik turizm mahsulotlarini rivojlantirishning prognoz yo’nalishlari ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari Qoraqalpog‘iston Respublikasida turizm salohiyatidan kompleks foydalanish, hududiy iqtisodiy faollikni oshirish va milliy madaniy merosni muhofaza qilish uchun amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar:

etnografik turizm, turizm samaradorligi, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, etnografik resurslar, turistik mahsulot, turizm infratuzilmasi, mahalliy jamoalar, hunarmandchilik, madaniy meros, turizmni diversifikatsiya qilish, raqamli marketing, homestay, etno-qishloq, barqaror turizm.

Kirish.

Jahon turizm iqtisodiyotida so‘nggi o‘n yillikda kuzatilayotgan asosiy tendensiyalardan biri ommaviy, standartlashtirilgan turizm mahsulotlaridan hudud o‘ziga xosligiga asoslangan, ma’naviy-madaniy mazmunga boy turizm turlariga o‘tish jarayonidir. Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) ma’lumotlariga ko‘ra, “xalqaro turizm pandemiyagacha bo‘lgan davrda jahon xizmatlar eksportining yetakchi tarmog‘i bo‘lib, global ichki mahsulotning 10 foizidan ortig‘ini shakllantirgan; 2020-yilda sohada 65–70 foizlik pasayish kuzatilgan bo‘lsa-da, 2022-yildan boshlab global tiklanish jarayonlari

faollashgan”¹. O‘zbekiston Respublikasida ham turistik oqim “2012–2024-yillar oralig‘ida o‘rtacha yillik 15,08 foizlik o‘shir sur‘atini (CAGR) qayd etgan”².

Iqtisodiy nuqtai nazardan etnografik turizmning o‘ziga xosligi shundaki, u boshqa turizm turlariga masalan, davolash-sog‘lomlashtirish yoki ishbilarmonlik turizmiga nisbatan ancha kam kapital talab qiladi, chunki uning asosiy resursi aholining an‘anaviy hayot tarzi, hunarmandchilik ko‘nikmalari va madaniy xotirasi allaqachon mavjud bo‘lib, uni faqat tashkiliy jihatdan turistik iste‘mol shakliga keltirish talab etiladi. Ilmiy adabiyotlarda ekologik, ma‘rifiy, etnografik va gastronomik turizm yo‘nalishlarini jadal rivojlantirish davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini qo‘llash orqali sohaning taraqqiyoti uchun keng imkoniyatlar yaratishi alohida ta‘kidlanadi, bu esa mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini oshirish maqsadida turizm salohiyatidan foydalanishning kompleks, o‘zaro bog‘langan mexanizmlarini shakllantirishni taqozo etadi. Shu bilan birga, mazkur mexanizmlarning samaradorligini ilmiy asoslash uchun ularga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarning miqdoriy o‘zaro bog‘liqligini aniqlash, ya‘ni tashkiliy-iqtisodiy chora-tadbirlarni ekonometrik modellash va ularning natijalarini o‘lchanadigan prognoz ko‘rsatkichlariga tayangan holda baholash zaruriyati yuzaga keladi.

Shu nuqtai nazardan Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘zbekistonning o‘ziga xos hududlaridan biri hisoblanadi. Rasmiy prognoz ko‘rsatkichlariga ko‘ra, “2026-yilga kelib Qoraqalpog‘istonga tashrif buyuruvchi xorijiy sayyohlar sonini 180 ming nafarga, mahalliy sayyohlar sonini esa 1 million nafarga yetkazish ko‘zda tutilgan, bunda eko, etno, madaniy-tarixiy, ziyorat, arxeologik, gastronomik va safari turizm yo‘nalishlari ustuvor deb belgilangan”³. Bu maqsadga erishish uchun Madaniyat va turizm vazirligi Germaniyaning GIZ (Gesellschaft für Internationale Zusammenarbeit) tashkiloti bilan hamkorlikda “2023–2026-yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasida turizmni barqaror rivojlantirish”⁴ strategiyasini ishlab chiqqan, biroq unda etnografik turizmga oid tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar hali yetarli darajada tafsillashtirilmagan. Butun mamlakat miqyosida esa “O‘zbekiston–2030” strategiyasi doirasida “2030-yilga qadar xorijiy sayyohlar sonini 15 million nafarga, ichki sayyohlar sonini 25 million nafarga yetkazish maqsad qilib qo‘yilgan”⁵, bu esa Qoraqalpog‘iston uchun belgilanadigan uzoq muddatli mintaqaviy ko‘rsatkichlarni umummilliy strategik ko‘rsatkichlar bilan uyg‘unlashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

So‘nggi rasmiy statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, “respublika bo‘yicha yashash va ovqatlanish xizmatlari sohasidagi faol tadbirkorlik subyektlari soni 2025-yil 1-fevral holatiga 26 556 taga, 2025-yil 1-mart holatiga esa 27 166 taga yetdi. Shu bilan birga, mamlakatda turizm salohiyatini oshirish bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida 2026-yil boshiga kelib respublika bo‘yicha jami joylashtirish vositalari soni 6 921 taga, ulardagi o‘rinlar fondi esa qariyb 185,6 ming taga yetkazildi”⁶.

Biroq, ushbu mavjud infratuzilma va joylashtirish salohiyatining asosiy qismi hamon Toshkent shahri, Samarqand va Buxoro kabi an‘anaviy turistik markazlarga to‘g‘ri keladi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi poytaxti Nukus shahrida mehmondo‘stlik obyektlari tarmog‘i kengayib borayotganiga qaramay (xususan, Ramada by Wyndham Nukus kabi brend obyektlarining kirib kelishi bilan), hudud yashash va ovqatlanish subyektlari hamda umumiy xonalar fondining respublika ko‘lamidagi ulushi bo‘yicha hamon sezilarli darajada orqada qolmoqda. Bu ko‘rsatkichlar Qoraqalpog‘istonda turizm

¹ World Tourism Organization. International Tourism Highlights, 2023 Edition. Madrid: UNWTO, 2023. –P.24.

² O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Turizm sohasi statistik ko‘rsatkichlari, 2024–2025 yy. [Elektron resurs]. – T, 2025 // <https://stat.uz/uz/>

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2025–2026-yillarda sayyohlar oqimini keskin ko‘paytirish va turistik xizmatlar ko‘lamini jadal kengaytirish orqali turizmning iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 15.05.2025 yildagi PF-87-sonli Farmoni // Qoraqalpog‘iston Respublikasida 2026-yilga qadar turizmni rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari (PF-87-son Farmonga 4-ilova). – T: 2025.// <https://lex.uz/uz/docs/-7531559>

⁴ Deutsche Gesellschaft für Internationale Zusammenarbeit (GIZ). 2023–2026-yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasida turizmni barqaror rivojlantirish strategiyasi. – Bonn; Nukus, 2023. // <https://www.giz.de/de/downloads/giz2024-en-Building-a-sustainable-future-for-Karakalpakstan.pdf>

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 16.02.2026 yildagi PF-21-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/-8050769>

⁶ <https://dunyo.info/turizm/travel-tomorrow-uzbekistan-nacelen-prinyat-v-2026-godu-12-millionov>

infratuzilmasini hududlararo teng taqsimlash va an'anaviy markazlardan tashqari yangi turistik yo'nalishlarni jadal rivojlantirish zaruratini tasdiqlaydi.

Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, "pandemiya davridagi keskin pasayishdan so'ng ichki turistlar oqimi tiklangan bo'lsa-da, xorijiy turistlar oqimi hozirgacha yetarli darajaga yetmagan, bu esa aynan etnografik va madaniy-tarixiy turizm mahsulotlarining xalqaro bozorlarda yetarlicha tanilmaganligi bilan bog'liq"⁷.

1-jadval. Qoraqalpog'iston Respublikasi turizm salohiyati va infratuzilmasining asosiy ko'rsatkichlari (2030-yilgi ekonometrik prognoz bilan)

Ko'rsatkich	2022-yil	2024-yil	2025-yil	2026-yil (maqsad)	2030-yil (prognoz)*
Xorijiy turistlar soni, ming kishi	≈45**	≈70**	125,4	180	295 (216–358)
Mahalliy turistlar soni, ming kishi	≈420**	≈650**	854,2	1 000	1 478 (1 298–1 608)
Turistik tur-paketlar soni	–	162	≈235	300 dan ortiq	≈520–530
Xorijiy tillarda yaratilgan targ'ibot kontenti	–	4 267	≈6 100	7 000 dan ortiq	8 000 dan ortiq
Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar	3	5	6	7 dan ortiq	9–10
Me'morchilik, san'at va arxeologik obyektlar	≈330**	345	352	o'sish tendensiyasida	≈390

3-jadval. Qoraqalpog'istonda etnografik turizm resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo'nalishlari

Resurs yo'nalishi	Mavjud holat	Asosiy muammo	Rivojlantirish choralari	Kutilayotgan natija
Moddiy etnografik resurslar (o'tov, milliy kiyim, buyumlar)	Muzey va ayrim ekspozitsiyalarda saqlanadi	Namoyish fragmentar xarakterda	Kompleks, interaktiv ekspozitsiyalar yaratish	Turistik jozibadorlik oshadi
Nomoddiy meros (urf-odat, marosim, folklor)	Kam namoyish etiladi	Raqamlashtirilmagan	Festival, jonli namoyish, 3D-arxivlash	Madaniy meros saqlanadi

⁷Jo'rayeva N., Hoshimov B. Qoraqalpog'istonda turizm jozibadorligini oshirish va yangi yo'nalishlarni tashkil qilish imkoniyatlari. Academic Research in Educational Sciences. Volume 5, Issue 3. 2024. – B. 112-118.

Resurs yo‘nalishi	Mavjud holat	Asosiy muammo	Rivojlantirish choralari	Kutilayotgan natija
Hunarmandchilik	Alohida ustalar faoliyati	Marketing va brendlash sust	Master-klass, savdo zonasi, sertifikatlash	Mahalliy aholi daromadi oshadi
Mahalliy aholi ishtiroki	Past-o‘rta daraja	Malaka yetishmasligi	Treninglar, homestay dasturlari	Bandlik ta‘minlanadi
Marketing va raqamli targ‘ibot	Cheklangan	Yagona raqamli platforma yo‘q	Veb-portal, SMM, ko‘p tilli ilova/QR	Turistlar oqimi ortadi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-noyabrda qabul qilingan PF-217-son Farmonga muvofiq “ekologiya va turizm sohalarida aholi talablariga tezkor javob bera oladigan boshqaruv tizimini yaratish maqsadida Turizm qo‘mitasi faoliyati qayta tashkil etilib, sohada davlat boshqaruvini takomillashtirish, xizmatlar sifatini oshirish va milliy turistik mahsulotlarning xalqaro bozorda raqobatbardoshligini ta‘minlash vazifalari belgilangan”⁸; ushbu Farmon asosida qabul qilingan 2025-yil 19-noyabrdagi PQ-348-son qarorda esa 4 va 5 yulduzli mehmonxonalar sonini ikki barobar oshirish va turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish orqali hududlarning turistik salohiyatini to‘liq ishga solish vazifasi qo‘yilgan⁹. Bu institutsional yangilanish Qoraqalpog‘iston kabi periferik hududlarda mehmonxona bazasi va kadrlar salohiyatini mustahkamlash uchun qulay shart-sharoit yaratadi. Shu bilan birga, amaliyotda hozircha etnografik turizm uchun ixtisoslashtirilgan moliyalashtirish, litsenziyalash va sertifikatlashtirish mexanizmlari to‘liq shakllanmagan, bu esa homestay va etno-qishloq formatidagi tashabbuslarning rasmiy faoliyatga o‘tishini murakkablashtirmoqda.

Jahon amaliyotida etnografik va madaniy meros turizmini tashkil etishning bir necha samarali institutsional modellari shakllangan. Madaniy meros obyektlarini turistik mahsulotga aylantirishning "Heritage Interpretation" (madaniy meros talqini) modeli Janubiy Koreya, Yangi Zelandiya va Iordaniya tajribasida keng qo‘llanilib, mahalliy identitetni zamonaviy turizm menejmenti strategiyalari bilan uyg‘unlashtirish imkonini bermoqda¹⁰. Mazkur model doirasida mahalliy hunarmandlar, folklor ijrochilari va an‘anaviy xo‘jaliklar rasmiy shartnomalar asosida turoperatorlar bilan hamkorlik qiladi, bu esa daromadning mahalliy jamoalarga adolatli taqsimlanishini ta‘minlaydi. Xalqaro tajribada, jumladan, “mahalliy jamoalar boshqaruvidagi qo‘riqxonatuzizm modellari hamda ko‘chmanchi xalqlar turmush tarzini namoyish etuvchi "o‘tov-lager" formatidagi loyihalar daromadning mahalliy aholiga bevosita yetib borishini ta‘minlovchi samarali vosita sifatida keng tan olingan”¹¹. Yevropa Ittifoqining Adriatika-Ion mintaqasi uchun makromintaqaviy strategiyasi (EUSAIR, "Adriatic" dasturi) tajribasi ham “chekka va tabiiy resurslarga boy hududlarda ekologik-madaniy turizmni transchegaraviy hamkorlik va yagona brendlash orqali rivojlantirish mumkinligini ko‘rsatadi”¹², bu tajriba Orolbo‘yi mintaqasidagi hududlararo (Qoraqalpog‘iston–Xorazm–qozog‘istonlik Qo‘shaperlik) hamkorlikni yo‘lga qo‘yishda metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ekologiya va turizm sohalarida aholi talablariga tezkor javob bera oladigan boshqaruv tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi 2025-yil 18-noyabrdagi PF-217-son Farmoni // <https://lex.uz/uz/docs/-7847353>

⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish va turizm sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 19.11.2025 yildagi PQ-348-son Qarori // <https://lex.uz/ru/doc-passport/-7851788>

¹⁰ Timothy, D.J. Cultural Heritage and Tourism: An Introduction. – Bristol: Channel View Publications, 2011. – P. 275.

¹¹ Richards, G. Cultural Tourism: Global and Local Perspectives. – New York: Routledge, 2007. – P. 407.

¹² European Commission. EU Strategy for the Adriatic and Ionian Region (EUSAIR). – Brussels: European Commission, 2014 // https://ec.europa.eu/regional_policy/policy/cooperation/macro-regional-strategies/adriatic-ionian_en

Mintaqaviy amaliyotda ham qator ijobiy tajribalar mavjud. Shu jumladan, Qoraqalpog'istonning o'zida ham mahalliy tajribalar mavjud: Nukus atrofidagi "Qoraqalpoq etnoqishlog'i" loyihasi qoraqalpoqlarning an'anaviy hayotining funksional modeli sifatida ishchi o'tovlar, chorva mollari va an'anaviy oshxonani o'z ichiga oladi, Chimboy tumanidagi Turekeev oilaviy majmuasi esa "ustaxona–mehmonxona–muzey" modeli asosida faoliyat yuritib, mehmonlarga an'anaviy uyda tunash, o'tov tikish yoki to'qimachilik hunarini o'rganish va tayyor mahsulotni xarid qilish imkonini beradi. Bu ikki loyiha xalqaro "community-based tourism" va "Heritage Interpretation" modellarining mahalliy sharoitga muvaffaqiyatli moslashtirilgan namunalari sifatida keyingi kengaytirish uchun asos bo'lishi mumkin.

O'tkazilgan tahlil natijalari Qoraqalpog'iston Respublikasida etnografik turizm salohiyatidan foydalanishga to'sqinlik qilayotgan quyidagi tizimli muammolarni aniqlash imkonini berdi.

Birinchidan, infratuzilmaviy cheklovlar mavjud: mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarining yetarli emasligi, ularning moddiy-texnik bazasi zaifligi va natijada bandlik darajasining pastligi mintaqada xorijiy turistlar sonining o'sishini cheklamoqda. Yo'l-transport infratuzilmasining, xususan, hududlararo va tuman ichi yo'nalishlarning yetarli rivojlanmaganligi ham uzoq masofadagi etnografik obyektlarga sayyohlarni jalb qilishni murakkablashtiradi.

Ikkinchidan, marketing va brending yetishmovchiligi kuzatiladi: hududning etnografik turizm salohiyati to'g'risida xorijiy bozorlarga yetkaziladigan tizimli va ko'p tilli kontentning cheklanganligi mintaqaning xalqaro turizm xaritasida yetarlicha ko'zga tashlanmasligiga olib kelmoqda; mavjud raqamli resurslar asosan an'anaviy matn va foto formatda bo'lib, virtual tur, AR/3D kabi zamonaviy vositalardan deyarli foydalanilmaydi.

Uchinchidan, kadrlar salohiyati muammosi dolzarb: gid-tarjimonlar, etno-hunarmandchilik ustaxonalari rahbarlari va mehmondo'stlik xizmati xodimlarining malaka darajasi zamonaviy talablarga to'liq javob bermasligi xizmat sifatining pastligiga sabab bo'lmoqda.

To'rtinchidan, tashkiliy-huquqiy bo'shliq mavjud: homestay va etno-qishloq formatidagi xizmatlarni litsenziyalash, sertifikatlashtirish hamda soliqqa tortishning ixtisoslashtirilgan tartibi hali to'liq shakllanmagan, bu esa xususiy tashabbuskorlarni rasmiy faoliyatga o'tishdan tiyilishga majbur qilmoqda.

Beshinchidan, moliyalashtirish mexanizmlarining cheklanganligi kuzatiladi: kichik hunarmandchilik xo'jaliklari va oilaviy turizm subyektlari uchun imtiyozli kreditlash va subsidiyalash tizimi yetarli darajada rivojlanmagan, bu esa boshlang'ich investitsiya talab qiluvchi loyihalarning (o'tov, an'anaviy dastgohlar, mehmon xonalarini jihozlash) amalga oshirilishini sekinlashtiradi.

Oltinchidan, tadbirlarning mavsumiy xarakteri iqtisodiy samaradorlikning asosiy to'sig'i hisoblanadi: hozirgi kunda festival va tadbirlar yil davomida notekis taqsimlangan, bu esa turistik oqimning barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Yettinchidan, ekologik omil alohida ahamiyatga ega: Orol dengizi inqirozi oqibatida yuzaga kelgan ekologik vaziyat mintaqaning xalqaro imijiga bevosita ta'sir ko'rsatib, buni salbiy assotsiatsiya sifatida emas, balki ijobiy "ekologik-etnografik narrativ" (Orolni asrash tarixi, ekologik ofatga moslashuv madaniyati, "Orol orzusi" dasturi doirasidagi tiklanish jarayonlari) sifatida qayta talqin qilish zarurati mavjud.

Xulosa. O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Qoraqalpog'iston Respublikasida turizm samaradorligini oshirishda etnografik turizmning imkoniyatlaridan to'liq va tizimli foydalanish hududning turistik salohiyatini kengaytirishning muhim yo'nalishlaridan biridir. Hududda mavjud bo'lgan moddiy va nomoddiy etnografik meros, jumladan, an'anaviy turmush tarzi, milliy kiyimlar, hunarmandchilik, xalq amaliy san'ati, urf-odatlar, marosimlar, folklor, milliy taomlar va an'anaviy me'moriy obyektlar raqobatbardosh turistik mahsulotlarni shakllantirish uchun muhim resurs hisoblanadi. Tadqiqot davomida Qoraqalpog'iston Respublikasida etnografik turizmni rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan asosiy muammolar sifatida turistik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, hududning etnografik turizm salohiyatini targ'ib qilish va marketing mexanizmlarining sustligi, malakali kadrlar yetishmasligi, tashkiliy-huquqiy mexanizmlarning takomillashtirishga ehtiyoji, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi, turistik xizmatlarning mavsumiyliги hamda Orolbo'yi hududining ekologik muammolari aniqlandi.

Mazkur omillar etnografik turizm resurslaridan iqtisodiy samarali foydalanish va ularni hududiy turistik mahsulotga aylantirish jarayonini cheklamoqda.

Etnografik turizmni rivojlantirishda davlat boshqaruvi organlari, mahalliy hokimliklar, turizm sohasidagi tadbirkorlik subyektlari, turoperatorlar, hunarmandlar va mahalliy aholi o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarur. Shu asosda davlat–biznes–mahalliy jamoa hamkorligiga asoslangan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni joriy etish etnografik resurslarni turistik mahsulotga aylantirish, xizmatlar sifatini oshirish va mahalliy aholining turizm daromadlaridagi ishtirokini kengaytirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijasida etnografik turizm resurslarini inventarizatsiya qilish va yagona elektron ma'lumotlar bazasini shakllantirish, turistik mahsulotlarni diversifikatsiya qilish, etno-qishloq va homestay xizmatlarini rivojlantirish, hunarmandchilik markazlarini turistik marshrutlarga integratsiya qilish hamda raqamli marketing vositalaridan keng foydalanish istiqbolli yo'nalishlar sifatida belgilandi. Ayniqsa, qara uy, milliy hunarmandchilik, folklor, milliy gastronomiya va mahalliy urf-odatlarini yagona turistik paketlar tarkibida birlashtirish hududning o'ziga xos turistik brendini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatdiki, "Heritage Interpretation" va "Community-Based Tourism" kabi yondashuvlarni Qoraqalpog'iston sharoitiga moslashtirish orqali mahalliy aholining turizm jarayonidagi ishtirokini kuchaytirish, madaniy merosni saqlash va turistik xizmatlarning iqtisodiy qiymatini oshirish mumkin. Bunda turistik faoliyatdan olinadigan daromadlarning bir qismini mahalliy jamoalarni rivojlantirish, hunarmandchilikni qo'llab-quvvatlash va madaniy meros obyektlarini asrashga yo'naltirish barqaror turizm tamoyillarini ta'minlaydi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. World Tourism Organization (UN Tourism). **International Tourism Highlights**. Madrid: UN Tourism. – Turizmning jahon iqtisodiyotidagi o'rni, xalqaro turistik oqimlar va pandemiyadan keyingi tiklanish tendensiyalari bo'yicha rasmiy ma'lumotlar.
2. World Tourism Organization (UN Tourism). **World Tourism Barometer**. Madrid: UN Tourism, 2023–2025. – Xalqaro turizmning 2020-yildagi pasayishi va 2022-yildan keyingi tiklanish jarayonlariga oid statistik ma'lumotlar.
3. [UN Tourism rasmiy sayti](#).
4. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. **Turizm va xizmatlar sohasi bo'yicha statistik ma'lumotlar**. Toshkent, 2024–2026.
5. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. **O'zbekiston Respublikasida turizm statistikasi: 2012–2024-yillar**. – Xorijiy va ichki turistik oqimlar dinamikasi.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **"O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni** va unga oid strategik hujjatlar. – 2030-yilgacha turizm sohasini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi **PF-87-son Farmoni**. – Turizm sohasini rivojlantirish, hududlarning turistik salohiyatidan samarali foydalanish va yangi turizm yo'nalishlarini tashkil etishga oid normalar.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-noyabrdagi **PF-217-son Farmoni**. – Turizm sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish, xizmatlar sifatini oshirish va milliy turistik mahsulotlarning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini ta'minlash masalalari.
9. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va Vazirlar Kengashi, Turizm qo'mitasining hududiy boshqarmasi. **Qoraqalpog'iston Respublikasida turizmni rivojlantirish bo'yicha ma'lumotlar va istiqbolli ko'rsatkichlar**. Nukus, 2024–2026.
10. Gesellschaft für Internationale Zusammenarbeit (GIZ). **Sustainable Tourism Development in Karakalpakstan, 2023–2026**. – Qoraqalpog'iston Respublikasida turizmni barqaror rivojlantirish strategiyasi va metodik materiallari.
11. [GIZ rasmiy sayti](#).
12. OECD. **Tourism Trends and Policies**. Paris: OECD Publishing, 2022–2024. – Turizmni diversifikatsiya qilish, hududiy turizm siyosati va barqaror turizmni rivojlantirish masalalari.
13. UNESCO. **Convention for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage**. Paris: UNESCO, 2003. – Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish va undan turizmda barqaror foydalanishning xalqaro-huquqiy asoslari.

14. UNESCO. **Operational Directives for the Implementation of the Convention for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage.** Paris: UNESCO, amaldagi nashr. – Nomoddiy merosni muhofaza qilish, jamoalarning ishtiroki va barqaror rivojlanish tamoyillari.